

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING NUTQINI ERTAKLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Seitmuratova Venera Jumamuratovna

Toshkent amaliy fanlar universiteti “Maktabgacha ta’lim metodikasi”

kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning og‘zaki nutqini shakllantirishda ertaklarning o‘rni va ahamiyati chuqur tahlil qilinadi. Ertaklar bolaning dunyoqarashi, estetik didi va ijodiy tafakkurini rivojlantirish bilan bir qatorda, uning so‘z boyligini kengaytirish, grammatik tuzilmalarni o‘zlashtirish hamda muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Maqolada ertaklarni pedagogik jarayonga to‘g‘ri va maqsadga muvofiq qo‘shish usullari, shu orqali bolalarning muloqotga kirishish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar yoritilgan. Shuningdek, ertaklar vositasida bolaning emotsional holati, hissiy dunyosi va axloqiy fazilatlari ham tarbiyalanishi mumkinligi ta’kidlanadi. Tadqiqotda bolalarning yoshi, psixologik holati va individual xususiyatlariga mos ravishda ertaklarni tanlash bo‘yicha tavsiyalar ham keltiriladi.

Kalit so‘zlar: *Dialogik nutq, maktabgacha ta’lim, og‘zaki nutqni rivojlantirish, kommunikativ kompetensiya, interfaol metodlar, innovatsion yondashuvlar, so‘z boyligi, milliy qadriyatlar, barkamol shaxs.*

РАЗВИТИЕ РЕЧИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА НА ОСНОВЕ СКАЗОК

Сейтмуратова Венера Жумамуратовна

Старший преподаватель кафедры «Методика дошкольного образования» Ташкентский университет прикладных наук

Аннотация: В статье подробно рассматривается значение сказок в развитии устной речи детей дошкольного возраста. Сказки не только способствуют расширению словарного запаса ребёнка, усвоению грамматических конструкций и формированию речевых навыков, но также

играют важную роль в развитии его воображения, эстетического восприятия и творческого мышления. Автор раскрывает педагогические методы эффективного включения сказок в образовательный процесс, акцентируя внимание на формировании коммуникативных способностей детей. Кроме того, подчёркивается влияние сказок на эмоциональное состояние ребёнка, его нравственное воспитание и развитие личностных качеств. В статье также даны рекомендации по выбору сказок в зависимости от возраста, психологических и индивидуальных особенностей детей.

Ключевые слова: Диалогическая речь, дошкольное образование, развитие устной речи, коммуникативная компетентность, интерактивные методы, инновационные подходы, словарный запас, национальные ценности, гармонично развитая личность.

DEVELOPING SPEECH OF PRESCHOOL CHILDREN THROUGH FAIRY TALES

Venera Jumamuratovna Seitmuratova

**Senior Lecturer at the Department of “Preschool Education
Methodology” Tashkent University of Applied Sciences**

Annotation: This article provides an in-depth analysis of the role of fairy tales in developing the oral speech of preschool-aged children. Fairy tales serve not only to enhance children's vocabulary and grammatical understanding but also contribute significantly to their imagination, aesthetic appreciation, and creative thinking. The author presents pedagogical strategies for the effective integration of storytelling into the early childhood education process, with a focus on fostering children's communication skills. Additionally, the article highlights how fairy tales can influence a child's emotional well-being, moral development, and overall personality growth. Recommendations are also provided on selecting appropriate tales based on the child's age, psychological state, and individual characteristics.

Keywords: *Dialogic speech, preschool education, oral speech development, communicative competence, interactive methods, innovative approaches, vocabulary enrichment, national values, holistic personality development.*

KIRISH. Bugungi raqamlashtirish jarayoni tobora kuchayib borayotgan bir davrda, bolalarda ogʻzaki nutqni rivojlantirish, samarali muloqot koʻnikmalarini shakllantirish, ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash hamda milliy va maʼnaviy qadriyatlarni singdirish orqali ijtimoiy ong va kommunikativ kompetensiyani yuksaltirish muhim vazifalardan biri sanaladi. Ayniqsa, bu jarayonda ertaklardan foydalanish — bolalarning tasavvuri, estetik dunyoqarashi va soʻz boyligini rivojlantirishda muhim metodik vosita hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, maktabgacha taʼlimning katta yosh bosqichidagi bolalarning nutqni zamonaviy va innovatsion metodik yondashuvlar asosida, xususan, ertaklar orqali shakllantirish, ularning lugʻat boyligini interfaol va ijodiy uslublar bilan kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha taʼlim davrida bolalarga sifatli taʼlim berish, ertaklar asosidagi turli metodikalardan foydalanib, ona tilidagi ogʻzaki nutqini rivojlantirish — natijada esa ular tengdoshlari va kattalar bilan erkin muloqot qila oladigan, mustaqil fikrlovchi va har tomonlama barkamol shaxs sifatida kamol topishini taʼminlash ustuvor maqsadlardandir.

Masalaning qoʻyilishi. Bola nutqini shakllantirish va rivojlantirish jarayonida ertaklarning tutgan oʻrni beqiyosdir. Ertaklar nafaqat bolaning soʻz boyligini oshiradi, balki ularni tinglash, tushunish, savol berish, javob qaytarish hamda fikr bildirish kabi asosiy kommunikativ koʻnikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa ogʻzaki muloqot asosida qurilgan ertak mazmuni bola nutqini mustahkamlashda, muloqot madaniyatini oʻzlashtirishda va fikrni izchil hamda mantiqan ifoda etish koʻnikmasini rivojlantirishda muhim vosita boʻlib xizmat qiladi.

Ertaklar orqali bola nafaqat tilni oʻrganadi, balki psixologik va pedagogik jihatdan rivojlanadi, atrof-muhitdagi ijtimoiy munosabatlarni anglaydi va axloqiy qadriyatlarni egallaydi. Zamonaviy pedagogika va psixolingvistika yoʻnalishlarida

olib borilayotgan tadqiqotlar ham shuni tasdiqlaydiki, bolalarning ertaklar orqali muloqotga faol jalb qilinishi ularning tafakkur va nutqiy faoliyatini sezilarli darajada rivojlantiradi. Shu bois, pedagog tomonidan to'g'ri tanlangan ertaklar, rolli o'yinlar, suhbatlar va interfaol mashg'ulotlar bola nutqini samarali rivojlantirish imkoniyatini kengaytiradi.

Til, nutq va nutqiy faoliyat bolaning ijtimoiy shakllanishida asosiy omillardan biri hisoblanadi. Til — insonlar o'rtasida muloqotni ta'minlovchi ijtimoiy hodisa sifatida, bolada tafakkur va ongni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda yashayotgan turli millat vakillarining ona tili va milliy xususiyatlari ularning ma'naviy madaniyatini ifoda etuvchi muhim omildir.

Til va tafakkur o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ayniqsa ertaklar vositasida yaqqol namoyon bo'ladi. Ertakdagi obrazlar, voqealar ketma-ketligi va mantiqiy tuzilma bolaning dunyoqarashi va xulq-atvoriga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Til tafakkurning ifoda vositasi sifatida bola fikrini shakllantirish, yetkazish va mustahkamlashda asosiy vositaga aylanadi. Shu sababli, bola nutqini rivojlantirishda ertaklardan maqsadli foydalanish — ta'lim-tarbiyaning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi muhim pedagogik vositadir. Bolaning nutqini rivojlantirishda monologik va dialogik nutq turlarini rivojlantirishga e'tibor qaratamiz.

“Dialog [yon. dialogos < di — ikki + logos — so'z; nutq; tushuncha] Ikki kishi o'rtasidagi og'zaki muloqot, suhbat. 2. Adabiy asarda ikki yoki bir necha personaj o'rtasidagi gaplashuv, suhbat. 3. Ikki yoki bir necha kishi o'rtasidagi uzluksiz suhbat, gaplashuv shaklida yozilgan adabiy asar” [1:605].

Nutqiy rivojlanish jarayonini A.N.Leontev quyidagicha tavsiflaydi: “Nutqni rivojlantirish jarayoni bola lug'atining va so'zlarning assotsiatsiya asosida boglanishining ortishida ifodalanadigan miqdoriy o'zgarishlar jarayoni emas, balki sifat jihatidan o'zgarish jarayonidir, zero, u fikrlash va ong rivojlanishi bilan ichki bog'langan holda so'zning barcha funksiyalari, tomonlari va aloqalarini qamrab oladigan haqiqiy rivojlanish jarayonidir”—degan edi [2:95].

Bolaning nutqiy rivoji va muloqotga kirishish salohiyati, asosan, mazmunan boy va ifodali ogʻzaki nutq orqali namoyon boʻladi. Bunday ravon nutq oʻzining mantiqlilik, izchillik va mazmunlilik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu koʻnikmalarning shakllanishi, avvalo, bolaning oʻzlashtirgan soʻz boyligi va lugʻaviy zahirasiga, shuningdek, uning intellektual, estetik va emotsional rivojlanish darajasiga bogʻliqdir.

Bola nutqini mazmunan boyitish, uni aniq va ifodali qilishda ertaklarning oʻrni alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki ertaklar bolada soʻzlarga boʻlgan qiziqishni oshiradi, yangi soʻz va iboralarni kontekst asosida oʻzlashtirishga yordam beradi, hamda obrazli fikrlashni rivojlantiradi. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan mashgʻulotlarda ertaklar asosida tashkil etilgan faoliyatlar orqali ularning nutqiy qobiliyatlarini rivojlantirishga erishiladi.

Bu jarayonda ertaklar yordamida bolada nafaqat tilni egallash, balki grammatik jihatdan toʻgʻri soʻzlash, voqealarni izchil tarzda bayon qilish va nutqning mantiqiy tuzilishini anglash koʻnikmalari shakllanadi. Shu bois, ertaklar asosida olib boriladigan mashgʻulotlar orqali bola nutqining rivoji uchun qulay va tabiiy muhit yaratiladi. Bu esa uning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va muloqotda faol ishtirok etishiga keng yoʻl ochadi.

Yechish usuli. Bolaning ogʻzaki nutqi va muloqotga kirishish salohiyati koʻpincha u eshitgan va qayta hikoya qilgan ertaklar orqali shakllanadi. Ertaklarda uchraydigan voqealar, obrazlar va dialoglar bolaga soʻz boyligini oshirish, fikr bildirish, savol berish va javob qaytarish kabi asosiy kommunikativ koʻnikmalarni rivojlantirish imkonini beradi. Shu sababli, ertaklar asosida olib boriladigan mashgʻulotlar bola nutqini mustahkamlashda muhim oʻrin egallaydi.

Tarbiyachi bolalarning nutqini faollashtirish maqsadida ularni ertak qahramonlari aks etgan rasmlar, bolalar kitoblari va illyustratsiyalar bilan tanishtirib, ular asosida birgalikda kuzatish, ertakni muhokama qilish, hikoya tuzish kabi mashgʻulotlar tashkil etadi. Masalan, “Boʻri va echki bolalari”, “Zumrad va Qimmat” kabi ertaklardan parcha oʻqib, “Bu voqeani oʻzing boshdan

kechirganmisan?”, “Senga qaysi qahramon yoqdi va nima uchun?” kabi savollar berish bolalarda voqelikni tushunish, fikrlash va ifoda etish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Shuningdek, bolalarni turli guruhlarda birgalikda ertak asosidagi rolli suhbatlarga jalb qilish samarali metodlardan biridir. Katta guruh bolalari kichik guruh bolalari bilan “Erkatoy quyoncha” yoki “Oltin kalitcha” kabi ertaklardan sahna ko‘rinishlarini o‘ynab, ularning nutqini jonlantirish va muloqotga kirishishiga yordam beradi. Bunday faoliyat davomida bola o‘z fikrini to‘g‘ri va izchil bayon qilish, ijtimoiy vaziyatga mos so‘z tanlashni o‘rganadi.

Ertaklar asosida tashkil etilgan syujetli-rolli o‘yinlar ayniqsa o‘rta guruh bolalari uchun muloqotga kirishish, rollarga kirish va nutqiy harakatni faol qo‘llashda muhim o‘rin tutadi. Bu orqali bola ertakdagi vaziyatni jonlantirib, unda qatnashuvchi qahramonlar tilida gapirishga intiladi.

Ertak motivlari bilan bog‘liq mehnat faoliyati ham bolaning nutqini rivojlantirishda samarali bo‘lishi mumkin. Masalan, “Ekin ekip yurgan dehqon” haqidagi ertak asosida pomidor ko‘chatlarini yerga o‘tkazish jarayoni tashkil etilib, har bir bolaga “dehqon” rolini berish orqali ular faol muloqotga kirishadi va o‘z faoliyatini og‘zaki izohlashga harakat qilishadi.

Tarbiyachining ertaklarni tanlashi va ular asosida metodik yondashuvlarni to‘g‘ri qo‘llashi bolaning grammatik bilimlarini ham rivojlantiradi. Yetti yoshga kirgan bola, odatda, ertaklardagi turlanish va tuslanishlarga boy gap tuzilmalarini eslab qoladi va o‘z nutqida qo‘llay boshlaydi. Masalan: tez yugurdi, sekin aytdi, chapga burildi kabi ifodalar ertak matnlarida ko‘p uchraydi va bolalar ularni kundalik nutqiga osonlik bilan qo‘shadi.

Shuningdek, ertak matnlarida uchraydigan ko‘makchilar va murakkab gap tuzilmalari bola nutqining sintaktik jihatdan rivojlanishiga xizmat qiladi. Dastlab, fazoviy ma’noda qo‘llanadigan “uydan chiqdi”, “devorga chiqdi” kabi iboralar, vaqt o‘tishi bilan sababiy va egalik ma’nolarini bildiruvchi shakllarga aylanadi, masalan: qo‘rqqanidan qichqirdi, onamning kitobi.

Yetti yoshga yaqin bolalar ertaklar asosida tuzilgan gaplarda bog'lovchilar va ergash gaplardan foydalana oladi. Misollar:

Qo'shimcha gap: Tulki nima bo'lganini aytdi.

Maqsadli gap: Qahramon xazina topish uchun yo'lga chiqdi.

Shartli gap: Agar yo'ldan adashmasa, u manziliga yetadi.

Shunday qilib, ertaklar bola nutqining mazmuniy, grammatik va mantiqiy rivojlanishida keng ko'lamli imkoniyat yaratadi. Ertak nafaqat o'yin yoki hikoya, balki bola uchun tilni, fikrlashni va muloqotni o'rgatadigan kuchli tarbiyaviy vositadir.

R. I. Lalaeva va N. V. Serebryakova ta'kidlaydilar: "Maktabgacha yosh davrida bolaning nutq shaklini badiiy asarlar bilan rivojlantirish muhimdir. Butun maktabgacha davr davomida bolalarda dialog tuzish (javob berish, savol berish, e'tiroz bildirish, tushuntirish, javob qaytarish) ko'nikmalarini rivojlantirish zarur. Buning uchun bolalar bilan bolalar bog'chasidagi hayoti, oilasi, kattalar va do'stlari bilan munosabatlari, taassurotlari va qiziqishlariga oid turli mavzularda suhbatlar o'tkazish muhim ahamiyatga ega"[3;167].

Mualliflar bola nutqining shakllanish davrlarini turlicha ko'rsatadilar, ularni har-xil nomlaydilar va har birining yosh chegaralarini turlicha ifodalaydilar.

G. L. Rozengrad-Pupko bolada nutq rivojlanishni 2 davrga ajratadi:

1. Tayyorlov davri. (2 yoshgacha bo'lgan davr)

2. Nutqning mustaqil shakllanish davri. A.N. Leontev bola nutqining shakllanishini 4 davrga bo'lib ko'rsatadi:

Tayyorgarlik davri- 1 yoshgacha.

Bog'chagacha bo'lgan davr- 3yoshgacha.

Maktabgacha bo'lgan davr- 7 yoshgacha.

Maktab davri.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv, ularning bilishga oid ehtiyojlari, muammolari va imkoniyatlariga samarali javob qaytara olish qobiliyatini rivojlantirishni, axloqiy me'yorlar va

qadriyatlarni shakllantirishni, boshqalar bilan muloqot qilishni hamda shaxsiy “Men” konsepsiyasini barpo etishni o‘z ichiga oladi.

Maktabgacha yoshdagi (6-7yosh) bolaning tayanch kompetensiyalari:

- Kommunikativ
- Ijtimoiy
- Shaxsiy ("Men" konsepsiyasini qurish)
- Bilish [4;15].

Kommunikativ kompetensiya – “atrofdagi odamlar bilan o‘zaro munosabatlarning konstruktiv usullari va vositalariga ega bo‘lishni taqozo qiladi; muloqot qilish va yuzaga kelgan o‘yin, bilish, maishiy va ijodiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish qobiliyati” [4;16]. Bolalarda bu kompetensiyani shakllantirishda og‘zaki nutq, ayniqsa dialogik nutqning rivojlanishi muhim ahamiyatga ega. Ertaklar bolada muloqotga kirishish, savol-javob qilish, fikr almashish va o‘z fikrini izchil ifodalash kabi ko‘nikmalarni shakllantirish uchun tabiiy va qiziqarli vosita bo‘lib xizmat qiladi. Dialogik nutqning asoslarini o‘rgatishda ertaklardagi personajlar o‘rtasidagi suhbatlar, ularning o‘zaro munosabatlari va voqealar rivoji bolaga real hayotdagi muloqotga o‘xshash modelni taklif etadi.

Mazmunli va rag‘batlantiruvchi ertak muhiti — ya’ni ertakni tinglash, uni tahlil qilish, rollarga kirish va voqealarni qayta hikoya qilish jarayonlari — bolalarda og‘zaki nutqni rivojlantiradi, muloqotga bo‘lgan qiziqishni oshiradi va ularni faol suhbatdoshga aylantiradi. Shunday sharoitda bolalar o‘zlariga bo‘lgan ishonchni mustahkamlashadi, do‘stlari bilan erkin muloqot qilishni o‘rganadilar, atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini boyitadilar va ertak asosida tashkil etilgan guruh mashg‘ulotlarida faol ishtirok etadilar. Bu esa ularning kognitiv va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Ertaklar asosida bola nutqini rivojlantirish usullari: Bola nutqini rivojlantirishda ertaklar asosida tashkil etilgan metodlar yuqori samaradorlikka

ega. Ushbu metodlar bolaning yoshi, individual xususiyatlari va qiziqishlariga mos tanlanadi. Quyidagi usullar ayniqsa samarali hisoblanadi:

Suhbat – ertak qahramonlari va voqealar asosida savol-javob qilish, fikr bildirish orqali bolalarda ogʻzaki muloqot va mulohaza yuritish koʻnikmalari shakllanadi. Masalan: "Zumrad nega mukofot oldi?" kabi savollar bilan suhbat tashkil etiladi.

Rolli oʻyinlar – bolalar ertak qahramonlarining rolini bajarib, vaziyatga mos gapirishni oʻrganadilar. Bu ularning soʻz boyligi va muloqotga kirishish malakasini rivojlantiradi. Masalan, "Dev va bola" ertagiga asoslangan sahnalashtirish.

Koʻrgazmali usullar – ertakka oid rasm, surat yoki videolavha asosida suhbat quriladi. Bu bolalarning tasviriy fikrlashini va ogʻzaki izohlash qobiliyatini kuchaytiradi.

Nutqiy topshiriqlar – ertak voqeasini qayta hikoya qilish, qahramonni tavsiflash yoki davomini toʻqib aytish orqali bola mustaqil fikrlashni mashq qiladi.

Erkin suhbat – bola ertak asosida oʻz fikri, his-tuygʻusi yoki voqeaga munosabatini erkin ifodalaydi.

Savol-javob va tahliliy suhbatlar – ertak mazmuni asosida tahliliy savollar berish orqali bolada voqealarni anglash, baholash va fikrini asoslash koʻnikmasi shakllanadi.

Ushbu usullar orqali ertaklar bolalarning nutqiy, mantiqiy va ijtimoiy rivojlanishiga kuchli turtki beradi.

Natijalar va namunalar: Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning nutqini rivojlantirish maqsadida ertaklar asosida mashgʻulotlar frontal, kichik guruhli va individual shakllarda tashkil etildi. Kichik guruh mashgʻulotlarida bolalar ertak syujetlariga asoslangan rolli oʻyinlar, juftlikdagi suhbatlar va munozaralarda ishtirok etdilar.

Tajriba davomida quyidagi metodik vositalar qoʻllanildi:

- ✓ ertak mazmuniga mos rasmlar, kartochkalar;
- ✓ dialog shaklida tuzilgan didaktik oʻyinlar;

- ✓ savol-javoblar, hikoya tuzish, ertakdagi qahramonlar haqida fikr bildirish topshiriqlari.

Bolaning muloqotga kirishish, suhbatni davom ettirish va grammatik jihatdan to'g'ri fikr bildirish ko'nikmalarini baholash uchun maxsus mezonlar ishlab chiqildi. "Fikr bildir" metodikasi orqali bolalar ertakdagi voqealarga nisbatan o'z munosabatini ifoda etdi.

Mashg'ulotlar davomida bolalarning og'zaki nutqdagi faolligi, savollarga javob berishga intilishi va emotsional ifodasi kuchaydi. Ayniqsa, dramatishtiyalashgan ertak topshiriqlari orqali bola nutqining ifodaviyligi va izchilligi aniq namoyon bo'ldi.

Jadvallar: Tajriba guruhiga 30 ta tarbiyalanuvchi jalb etildi va natijalari statistik jihatdan ham tahlil qilindi. Ushbu tahlil asosida tajriba guruhidagi bolalarning nutq rivojlanish darajasi nazorat guruhiga nisbatan 12 % ga oshganligi aniqlandi. Bu esa tadqiqot davomida qo'llanilgan metodik yondashuvlarning samaradorligini isbotlaydi va ularni maktabgacha ta'lim tizimida keng joriy etish imkoniyatini ko'rsatadi. Buni quyidagi jadval orqali keltirishimiz mumkin.

1-jadval.

Tajriba boshi va oxiridagi xulosalar

Ko'rsatkichlar	Nazorat guruhi (%)	Tajriba guruhi (%)	Farq (%)
Muloqotga kirisha olish	22	34	+12
Suhbatni davom ettirish	23	35	+12
Savol-javob faoliyatida ishtirok	22	34	+12
Fikrni izchil va grammatik to'g'ri	24	36	+12

ifodalash			
Ertak asosida mustaqil hikoya tuzish	23	35	+12
Qahramonlar roliga kirish va dramatisatsiya	25	37	+12

Xulosa. O‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari shuni ko‘rsatdiki, ertaklar asosida tashkil etilgan metodik, emotsional va interfaol faoliyat shakllari maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqotga bo‘lgan ichki ehtiyojni kuchaytiradi, ularning suhbatdosh sifatida faolligini oshiradi hamda nutqiy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ertak syujetlari asosida olib borilgan mashg‘ulotlar bolalarning erkin fikr bildirish, o‘z qarashini ifoda etish, suhbatni davom ettirish hamda og‘zaki nutq orqali o‘zini ifodalash qobiliyatini takomillashtirib, ularning shaxsiy nutqiy faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли, 1–жилд.— Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси,— 2007. 605 -b.
2. Леонтьев А.Н. Проблема деятельности в психологии. // Ж. Вопросы философии. — 1972. -№ 9. С.95
3. Катаева Виктория Григорьевна. Федеральное государственное бюджетное образовательное учреждение высшего образования «Нижегородский государственный педагогический университет имени Козьмы Минина» (г. Нижний Новгород) 167 st.
4. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim Vazirligining «Ilk qadam» Davlat o‘quv dasturi (takomillashtirilgan 2-nashr) Tosh-2022. 15-16-bet.

5. Babayeva D.R. «Tevarak atrofni o'rganishda maktabgacha katta yoshdagi bolalarning bog'lanishli nutqini rivojlantirish» Ped. fan. nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Tosh-2001. 75-b.
6. ILM YO'LI. 6 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni maktabga tayyorlash uchun rivojlantiruvchi, ta'limiy-tarbiyaviy variativ dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr) Toshkent-2022 33 b.
7. Nizomova, Shoxista Shodiyevna. Bolalar nutqini o'stirish nazariyasi va texnologiyalari [Matn] : o'quv qo'llanma / Sh. Sh. Nizomova. – Buxoro : Fan va ta'lim, 2022. 26-b.
8. Познавательные сказки для детей 4-7 лет. Методическое пособие/ Сост. Л.Н. Вахрушева. – М.: ТЦ Сфера, 2011. – 80 с
9. Jumayev R.X. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishda ertaklar o'rni. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar (2024 йил № 2) 118-B.
10. Ушинский К.Д. Детский мир и хрестоматия. Санкт Петербург 1861 г 52с